



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

BADIIY TALQINDA GERMENEVTIK USULNING O'ZIGA XOSLIGI

Maftunaxon Mannapova

Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilgari surilgan nazariy-ilmiy mulohazalar badiiy asarga yondashuvning hermenevtik usuli hamda Frans Kafkani anglash modusiga qaratiladi. Unda Frans Kafkani qaysi rakursdan baholash haqida nazariy mulohazalar jahon adabiyotnanuvlari misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: hermenevtika, talqin, mif, obraz, syujet, g'oya, matn, konsepsiya.

СПЕЦИФИКА ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО МЕТОДА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Мафтунахон Маннапова

Гулистанский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-научные положения, связанные с герменевтическим методом подхода к художественному произведению, а также с модусом понимания творчества Франца Кафки. На примере мирового литературоведения раскрываются теоретические размышления о том, с какого ракурса следует оценивать наследие Кафки.

Ключевые слова: герменевтика, интерпретация, миф, образ, сюжет, идея, текст, концепция.

THE SPECIFIC FEATURES OF THE HERMENEUTIC METHOD IN ARTISTIC INTERPRETATION

Maftunaxon Mannapova

Gulistan State University, Independent Researcher

Abstract

The article focuses on theoretical and scholarly reflections related to the hermeneutic method of approaching literary texts and the mode of understanding Franz Kafka's works. Drawing on examples from world literary studies, it explores theoretical perspectives on the appropriate angle from which Kafka's oeuvre should be evaluated.

Keywords: hermeneutics, interpretation, myth, image, plot, idea, text, concept.

Iqtidorga kelgan iste'dodni va uni qo'llovchi, tinglovchi, hech bo'lmaganda dalda bo'luvchi ota-ona, oila, yaqinlari chinakam ijodkorga kuch va ta'sir qilishi, tabiiy. Negaki, hech bir zamonda haqiqiy ijodkorga oson kechgan emas. Ana shu tamoyil G'arb an'alarining Sharq osmonida yulduz kabi porlab nur sochishga sabab bo'ladigan iste'dodlarning shakllanishiga sharoit hozirladi. Ingliz va irlandiyalik yozuvchi Jeyms Joys, chexiyalik adib Frans Kafka, fransiyalik Albert Kamyu, Lotin Amerikasidan luis Borxes, angliyalik Jorj Oruell, amerikalik Ernest Xeminguey kabi daho, fikrlovchi ijodkorlarni kamol topishida XX asrning birinchi va ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar katta ta'sir qildi desak, mubolag'a

qilmagan bo'lamiz. Axir har bir millat sajiyasini ko'tarib turuvchi uning tili va qadriyatlari, ming yillik urf-odatlar, ajdodlaridan o'tib kelayotgan milliy o'zligi, dini, tarixi bo'ladi. Bu sajiya ijodkorni fe'liga, keyin asarlariga, millatining sha'niga aylanishi tayin. Eslang, Onere de Balzak "Men buyuk Fransuz tilini himoyachisiman" deya baralla nutq so'zlagandi adabiy minbardan turib. Ana shunday ijodkorlar har bir millat dardini, tilini, dinini, kerak bo'lsa qadriyatini hizfu himoyasiga olishga qodir ijodkor, iste'dodlarni berishi tayin. Demak, biz ushbu tadqiqotimizda Frans Kafka bilan o'zbek yozuvchisi Nazar Eshonqul uslubi, ramzlar tilida so'zlash mahorati, mavhumotning bag'rida qoim tuyg'ular tragizmini, kinoyani, obrazlarni tahlilu talqin qilishni maqsad qildik. Shuningdek, har ikki xalq vakilining individual sajiyasi-yu, topilmalari, xarakterlar dinamikasi, bir-birini to'ldiruvchi moduslar sistemasini aniqlashtirish ilmiy maqsad hamda vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Ma'lumki, inson ruhiyatini mavhumotlar ichiga joylash, uni o'quvchining o'zigagina havola qilish, anglash tushunchasi badiiy adabiyot metodologiyasida turli xil shakllarda talqin etiladi. Badiiy olam – borliqqa munosabat demakdir! Badiiyat ichiga jo qilingan har qanday shakl uzviyligi, munosabat tig'izlashuvi, insonni kashf qilishda nimalarga e'tibor berish zaruratini ham keltirib chiqaradi. Chunki mavhum narsa-hodisalar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Masalan, fasllar almashadi, gullar ochiladi, quriydi, chirydi, u tabiatning bizga ko'ringan borliqdagi hodisalaridan biri. Fasllarning o'zgarishi, qorlar yog'ishi, muzliklarning erishi, tabiiy ofatlarning sodir bo'lishi o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Boshqacha aytganda Oliy Nizom, Alloh taoloning har bir narsani o'lchab, o'z rangi-ro'yi, iqlimi, sodir bo'lish vaqtini hayot atalmish sirli jumboqqa gizlagan ligidadir.

XX asr tongotarida o'zbek adabiyotiga jahon adabiyotidan ta'siri doirasida o'nlab janrlar kirib keldi. Antik yunon madaniyati Arastu zamonidan eposning qonuniy qorisi romandan, hikoya, hikoyadan, qissa, qissadan dramalarning o'rin almashinib turishining o'ziyoq yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli isbotlaydi. Inson ruhiyati cheksizliklar ichida aylanib, ko'chib, sirli tush kabi o'zligini izlash sari yo'lga chiqqan yo'lovchi kabidir. Bunday o'xshatishlar o'z-o'zidan paydo bo'ladimi. San'at ana shu o'xshatishlar, ramzlar bag'rida barkamollashadi. Frans Kafka tabiatan ana shunday o'zshatishlar bag'rida anglamsiz olamning murakkab formulasini chizayotgan rassomni eslatadi. Qora tun, zulmat, yovuzlik, adashish, qullik, mutelik bag'rida Frans Kafka o'zini tinimsiz azob va uqubatlar ichkarisiga otib yuboradi, yoki qahramonlarini shunday qiyin vaziyatlarda yolg'iz qoldiradi. Demak, Kafka yoki Kamyu, Joyslar uslubida ramzlar, metaforalar, mavhumotlar, kinoyalar shu qadar o'quvchini jiddiy tayyorgarlik sari boshlaydiki, unda odam o'zini ham, o'zgalarni ham qayta va qayta mutolaa jarayonida anglay boshlaydi.

Adabiyottanuv ilmida talqin qilish usullari nihoyatda ko'p. Ular lirik yoki dramatik janrlardan nasriy asarlarda boshqacha namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, inson shaxs ekan, uning shaxslik maqomoti qanday aniqlanadi. Mumtoz shoirimiz Alisher Navoiy komillikning darajotlarini to'rt bosqichga bo'lib talqin qiladi. 1. Shariat. Tariqat. Ma'rifat. Haqiqat. Prof.I.Haqqul bu haqda so'z yuritib shunday yozadi: "Mana, bir mulohaza: million-million odamlarni, butun boshli xalq va elatlarni qaqshatib, qirg'in va balo-qazolarga giriftor aylab, kundan-kunga bashariyatni qo'rquv, tahlika, xilma-xil zo'ravonliklarga mahkum qilayotgan yovuzliklar qayerda ro'y berayotir? Albatta, shu dunyo, musibatdiyda shu jahonda. Modomiki, shunday ekan, ularning olis tarixga ega zamini, urug'i, ildizi va asoslari bo'lganmi? Nega bo'lmasin – bo'lgan. Buyuk valiy, alloma va mutasavviflar "tarki dunyo"dan so'zlashganda, birinchi navbatda, qayd qilingan shafqatsizlik, zolimliklarning yo'lini to'sish yoki ildiziga bolta urishni ko'zda tutishgan. Yigirmanchi asr o'zbek she'riyatining buyuk vakili Abdulla Oripov bir o'rinda "Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan // Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan", deydi. "Kengga – keng dunyo", deganlaridek, dunyoni qafasga

aylantiradigan ham, zindon holiga tushirib, nafas olishni qiyinlashtirib “tuynuksiz qasr” holiga keltiradigan ham inson qavmining o‘zi va dunyoparastlik hirsidir”. Haqiqatdan ham, ramzlarga burkangan nasriy yoki she’riy adabiyot jamiki bilimlar, anglamlar, sirlarni bilishga undovchi belgilar, ishoralar yig‘indisidir. I.Haqulov ana shu sifatlarga bugungi zamonamizdan burib, XX asr, balki adjoddan avlodga o‘tib kelayotgan mislsiz shafqatsizliklarni ildiziga kirib borish yo‘llarini aniq-tiniq chizib ko‘rsatishga harakat qiladi.

Ta’kidlash o‘rinliki, badiiy asarni tushunish, tushuntirish, uni his etish, o‘quvchiga oson va qulay tarzda yetkazish uchun mutaxassisdan ham ko‘p va xo‘p matonat, bilim, tajriba talab qilinadi. Frans Kafkalar avlodi ana shu tushuntirishlarga o‘ziga xos kalitlarni ham yasab, anglashga ishoratlar berib ketgan deyishimiz mumkin.

Adabiyotshunos olimlar e’tirof etishicha: “Germenevtika” grekcha “hermeneukos” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuntiruvchi”, “talqin etuvchi” ma’nosini beradi. istilohning o‘zi ham qadim grek afsonalariga borib taqaladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Olim tog‘idagi “iloh”larning amr-farmon va xabarlarini Germes odamlarga olib kelib, tushuntirib, talqin etib berganmish. Qadim Rim miflarida bu vazifani Merkuriy (Autrod0 bajargan emish. “Germes” bilan “germenevtika” orasidagi talaffuzda ham, vazifadoshlikda ham yaqinlik yaqinlik bor . Yana boshqa adabiyottanuvlar uni butun va qism orasidagi aksincha qismni butun asosida tushuntirish bilan bog‘liqligini ham aytib o‘tadi. Ayniqsa, mavhum so‘z – muayyan izoh talab qiladi. Frans Kafkalar adabiyotga olib kirgan badiiy formula, ishor, ramz, maqsad hamda insonni tushuntirish haqidagi jarayonlar yig‘indisidir.

“Germenevtika – bu amaliyot bilan bog‘liq jarayon. Shunday ekan, undagi, haqiqatni yolg‘iz bir odamgina anglab olishi va bu haqda boshqalarga xabar berishi mumkin emas. Bu germenevtikaning fundamental asosidir” . Bunga o‘shimcha qilish mumkinki, har qanday amaliyot srddalikdan boshlanadi. Murakkab sistemalar, metaforalar o‘quvchiga osonlikcha manzilga yetib olishga zamin yaratmaydi. Razmlar tilida ifodalanayotgan har qanday badiiy shakl qaysidir haqiqatni o‘z pardasi orasida yashirib turadi. Bunday usul XX asr tongotarida Kafkalarda kuzatilgan bo‘lsa, o‘zbek mumtoz adabiyotida she’riy yo‘sinda Navoiy hamda Bobur, Ogahiy, Gulxaniy, Mashrab avlodida – haqiqatni anglash, Allohni tanish yo‘sinida o‘z ifodasini topdi va namoyon bo‘ldi. Shunday ekan, Frans Kafka, Jeyms Joyslar uslubidan oziqlangan o‘zbek iqtidori va munaqqid yozuvchisi nazar Eshonqul milliy menatlitetimizni, qadriyatimizni, din, axlq, komillik, ma’nan ulug‘vorlik, ma’nan tubanlik, mutelikning zanjirlarini juda tarixan chuqur ildizlariga borib tutashuvini talqin etaroq asar yozadi. Yaqinda chop qilingan “Giryon” romanida ham postmodernistik talqin ifodasini, ziyoli qatlam, yo‘lini yo‘qotgan odam fenomeni, siz biz kabi bir nafasdan bahra olayotgan odam obrazini tasvir etganligida ko‘ramiz. Mana shu his tuyg‘ular, ifodalar, materiya ichida, ma’naviyat bo‘shlig‘ida sodir bo‘lgan, asoratlari totalitarizmdan qolib ketayotgan inson ruhiyatini tasvirida anglay boshlaymiz.

Prof.B.Karim qayd etishicha: “Tushunish – bu boshqa bir insonning ma’naviy-ruhiy olamini anglash, his etish, uning maqsad, g‘oya va niyatlarini uqib olish demakdir. Chunonchi badiiy asar sohibi har doim ham o‘z qalbida kechayotgan tuyg‘ularni, inson va borliq xususidagi hissiy qarashlarini qog‘ozda to‘liq ifoda eta olmaydi. Shu sabab muallifning ma’naviy dunyosi, badiiy olami matnda ifodalangan mazmunga nisbatan ancha keng bo‘ladi. Tushunishdagi sub’yektivlik ham, tarixiylik ham, psixologizm ana shu jihatni inobatga oladi” . Shunday ekan, ijodkor qalbidan to‘kilgan har qanday mukammal, murakkab, mavhum yoki sodda badiiy asar mo‘jizadir. Shuning uchun ham, badiiy g‘oyani tushunish, anglash, inirgalar, qochirmlar, yo‘llar, sinovlar barchasi yozuvchi xalqining ijodiy konseptula qarashlarining oydin namunasi bo‘lishi tayin.

Badiiy matndagi qisqalik ham, uzundan-uzun jumlalarning boshi-oxiri bo‘lmasligi,

undagi tinish belgilari-yu, jumalarning haddan ortiq cho‘zilib ketishi mumkin. Masalan, Frans Kafkani tushunish haqida so‘z bormoqda. Mavhum badiiy voqelik, uzundan-uzun jumla, undagi yashirilgan ma’ni, mantiq haqida ham adabiyotshunoslar turli xil qarashlarni ilgari suradi. Jeyms Joys va Frans Kafkaning badiiy matn tuzishdagi an’anadan – noan’ana, “nima demoqchi” ekanligini uqish nafaqat o‘quchi, soha mutaxassislarini ham o‘ylantirib qo‘yadi. Chunki ular jumalar qa’tiga qavatma-qavat yurish“, g‘oyani ichiga kirib borishga yetaklovchi konsepsiyani kapsulaga joylaydi. Bu kapsulani ochib, ichidagi ta’mini bilish (g‘oya)ni o‘quvchi o‘zida oldin tayyorgarlik ko‘rishi talab qilinadi. Bularning barchasi – germenevtik usul o‘ziga xosligini tayin etadi.

Polyak adibi Yan Parandovskiy: “Hayot ularning xarakterini shakllantirgan. Irodalarini, qalblarini, aql-zakovatlarini toblagan, o‘pkalarini toza havoga to‘ldirgan, aynishlariga, munkillab qolishlariga yo‘l qo‘ymagan, tajriba bilan boyitgan, odamlar haqida, olam to‘g‘risida bilim bergan. Avvalo inson bo‘lmoq kerak, keyin san’atkor bo‘lasan – bu fikrni ba’zilar baland ovozda baralla aytishgan, boshqalar esa, o‘z hayotlaridan misollar keltirib, uni hech qanday shubha tug‘dirmaydigan haqiqat ekanini tasdiqlash bilan cheklanishgan. Ma’lumki, Dikens, Gamsun, Peymont, Konrad, Gorkiy hayotda xilma-xil mashaqqatlarni ko‘rganlar, uning turfarang sinovlariga dosh berishga majbur bo‘lganlar. Xo‘sh, mana shu mashaqqatlar va sinovlar ularning ijodi uchun juda qimmatli material bergan emas, deb kim ayta oladi? Uitmendan boshlab to bugunga qadar butun Amerika adabiyoti haddan tashqari g‘ayrioddiy yo‘llardan o‘tib kelgan odamlar tomonidan yaratilgandir. Ular shaxsiy hayotlarida shunaqa ishlarni va sharoitlarni ko‘rganlarki, bunaqasini boshqa mamlakatlardagi ko‘pgina yozuvchilar hatto tushlarida ham ko‘rgan emas. Ular o‘z faoliyatlari bilan o‘z asarlari uchun xomashyo barpo etishgan”. Hayot haqiqatini anglash esa hamma vaqt ham osonlikcha kechgan emas. Chunki ramzlar tilida bitilgan har qanday asar matnida muammolar ko‘p uchraydi. Shu boisdan ham, ijodkor olamida ramz, ishora, mavhumotlar yolg‘iz sub’yektni “bilish”ni taqozolaydi. Bilish – anglash hamma vaqt odatlarni emas, ifodalarni, qadriyatlarini, o‘zligini, kimligini to‘laqonli his etishga chorlaydi. Frans Kafkalar avlodi ana shu mazmun-mohiyatni “matn tarkibiga juda og‘ir his etiladigan darajada yashirishga” harakat qilib, qissadan – hissani o‘quvchini o‘zigagina tan holatga joylab ketganligi rost. Frans Kafka hikoyalaridan romanlargacha mif asosiga qurilgan. Mifologik obrazlar bag‘rida badiiy, ulkan hayotiy g‘oya o‘z tajassumini topadi. Kafkashunoslar buni quyidagi uch shaklda anglash muhimligin qayd etadi.

1. Max Brod – Frans Kafka yaratgan obrazlari bilan o‘z ijodining to‘laqonli qismida xudolardan adolat va shafqat hamda e’tirof so‘rayotgan mifologik personajlarga qiyoslaydi.

2. Zigmund Freyd – Nuh payg‘ambar haqidagi miflarning ta’siri negizida yuzaga kelgan hamda otasining zulmiga isyon qilayotgan, bir jabrdiyda farzand nolalariga, miflarga yashiringan ma’noga tutashtiradi.

3. Sfranski Ryudiger – Frans Kafka realistik dunyoqarashni absurd, mistik unsurlar bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarda kuchli dahshatni, ekzistensial g‘oyalarni uyg‘otishga hissa qo‘shgan adib deya baholaydi.

O‘zbek olimlaridan Jabbor Eshonqul ta’biri bilan aytganda “Kafka asarlaridagi mifologik talqin bevosita emas, bilvosita, ya’ni asarda yaratilgan tasavvur va tushunchalar modeliga singdirilganidir. Shu sababli bu asarlarni xohlagan mifologik nuqtai – nazardan talqin qilish mumkin”. Shuni alohida qayd etish lozimki, “Jarayon”nni “Qal’a” romanining mantiqiy davomi deyish mumkin. Mana shu ikki badiiy g‘oyaning birlashgan nuqtasi – Frans Kafkaning o‘zi ekanligi, tiriklik, va mavjudlikning jumbog‘i nimalarda “yashirin” ekanini tushuntishga keng imkoniyat hozirlaydi. Bir qarashda Olimpni, yunon miflari, asotirlar negizida ochiq-lamoqchi bo‘ldi desak, boshqa tomonda xiristian, yahudiy miflaridan tashqari shumerlar

hayotiga doir miflarni ham kuzatamiz. Badiiy asarga yondashuvda muallif o'zi anglatganidek, katta boylar, amaldorlar, qurbi idroki hamma hech narsaga yetmaydigan, och, yupun kishilar hamma zamonlarda mutelik og'ushida kun kechirishi, azaldan bo'lgan va bo'lishi ham tayin degan xulosalarni ham berishga yo'l ochadi.

Umuman, olganda germeneytik yo'sinda Kafkalar avlodini talqin etish, ramzlar, metaforalarni bir qadar tushunishga imkon beradi. zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda bu talqin usuli o'tgan asrning 80-yillarida juda xo'p va ko'p munozaralarga, ilmiy bilish jarayonlarining kengayishiga zamin yaratdi. Rus munaqidi M.M.Baxtin bu usul bilan XX asrda qator adiblarni antik yunon miflari negizida asoslay oldi. Zero, ilm-fan taraqqiy etarkan, N.Eshonqul uslubidagi Kafka ta'sirini ham anglashda muayyan kalit vazifasini o'tashi shubhasiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Боров Ю. Эстетика. –М., 1988.
2. Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. –М., 1991.
3. Каримов Б. Рухият алифбоси. –Т: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа-жодий уйи”. 2018.
4. Ян Парандовский. Сўз кимёси. Рус тилидан Озод шарафиддинов таржимаси. –Т: “Маънавият”. 2010.
5. Жаббор Эшонкул. Фольклор: образ ва талкин. –Қарши, Насаф. 1999.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-navoiy-ijodida-dunyo-timsoli-va-talqinlari.html>